

MT-4602

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 208
"20" 08 2022 y.



"Sanoat xavfsizligi" fanining
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600000	-	Xizmatlar sohasi
Ta'lim sohasi:	640000	-	Hayot faoliyat xavfsizligi
Ta'lim yo'nalishi:	5640200	-	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

"Sanoat xavfsizligi" fani bo'yicha 5640200 - "Mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi uchun soatlar taqsimoti

Umumiy o'quv soati	166 soat
Shu jumladan:	
Ma'ruza	44 soat
Amaliy mashg'ulotlar	44 soat
Semenar	20 soat
Mustaqil ta'lim	58 soat

Fanning ishchi o'quv dasturi, Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4 oktyabrdagi 892- sonli buyrugining bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar : N. Maxmatqulov- QarMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida yig'ilishida (bayon № 1, 26.08.2022 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № 1, 27.08.2022 y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № 1, 29.08.2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i:

Sh. Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

M. G'ofirov

"Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedra mudiri:

R.A. Eshonqulov

I. KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan ishlohtlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Insoniyat sivilizatsiyasi sanoat xavfsizligini ta'minlash, zararli va xavfli omillardan himoyalash muammosini hal etish - odamlarni me'yoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o'rnatgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan me'yoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish bugungi kunda asosiy muammolardan bir bo'lib qolmoqda.

Ishlab chiqarish obektlaridagi barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, atrof muhitda bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni anglash, tushinish, oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo'lishi lozim. Aynan ushbu bilimni «Sanoat xavfsizligi» fani o'rganadi.

Ushbu «Sanoat xavfsizligi» fanidan ishchi dastur fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari va umumiy dastur asosida tuzilib "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko'nikmasiga bo'lgan talablar, mashg'ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar royxati keltirilgan.

1.1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Insonning jamiyatni taraqqiy ettirish hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog'ligini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu dastur «Xavfli ishlab chiqarish obektlarida xavfsizlik to'g'risida»gi, va «Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini o'rganish, zamon talablariga javob berish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu bilan birga bakalavrlar muntazam kasbiy usushida interaktiv metodlar, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yunaltilgan innovatsion usullar, mustaqil ta'lim olishni nazarda tutuvchi mashg'ulotlar olib borish ko'zda tutilgan bulib, sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotida muhim manfaatlarning xavfli ishlab chiqarish obektlaridagi avariya va noxush hodisalar hamda ularning oqibatlaridan himoya qilish bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

1.2. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisliklariga aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish obektlaridagi avariya hamda muhofaza qilishni ta'minlash hamda davlat organlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini va aholini sanoat xavfsizligining xohati to'g'risida xabarador etish, xavfli ishlab chiqarish obektlaridan foydalanuvchi tashkilot sanoat xavfsizligi qoidalarini o'rganishdan iborat.

1.5. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturiy faol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy tiborauditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurtashiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyo qarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalarni matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalarni o'qish, elektron plakatlarni internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Sanoat va radiatsiya xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi.

Tizimli yondashuv - ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam yetmog'i lozim: jarayonning mantiqligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv - shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va inqoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv - bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish - demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurini bildiradi.

Muammoli ta'lim - ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

O'qitishning usullari va texnikasi - ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari - dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari - o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash - o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejalari tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Fanning asosiy vazifalari - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan eng yuqori normaga teng yoki undan ortiq miqdordagi ishlab chiqariladigan, foydalaniladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saklanadigan, chiqariladigan, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari uchun sanoat xavfsizligi ta'minlash, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridagi deklaratsiyasini ishlab chiqarish, sanoat xavfsizligi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini avariya xavfiga berilgan xar tomonlama bahoni, avariyaning oldini olish, xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishni amalga oshiradi.

1.3. Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar

Sanoat korxonalarida sodir bo'lgan avariya va xalokalar sodir bo'lganda muhofazalanish metodlarini, to'g'ri xatti - xarakat kilishni o'rgatishdir. Ushbu maksadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv xanda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagilar:

Talaba:

-sanoat xavfsizligi sohasida qabul qilingan normativ huquqiy xujjatlarning asosiy talablarini;

- sanoat xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari, uslublari va vositalarini taxdit qilish;

-sanoat xavfsiz sharoitlarini ta'minlash;

-ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli manbalari turlari, ularning yuzaga kelishining oldini olish usullari;

- jamoa va shaxsiy ximoya kilish vositalarini ishla olish;

birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish;

avariya va xalokatlarni sodir bo'lganda moddiy boyliklarni saklash va qutqarish vositalarini ishlatish;

-sanoat korxonalarida yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligiga qo'yiladigan

talablar bilishi;

-texnika xavfsizligi qoidalarini va meyorlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

1.4. Fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

"Sanoat va radiatsiya xavfsizligi" fani "Hayot faoliyati xavfsizligi", "Mehnat muhofazasi", "Fizika", "Himiyat", "Atrof muhit himoyasi va ekologiya", "Favqulodda vaziyatlar va fuqoralar muhofazasi" kabi fanlar bilan o'zaro bog'langan. Inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Lekin, insoniyatning XX asr sivilizatsiyasida radiatsion nurlar alohida o'rin tutadi. Chunki bu yangi soha bo'lib iqtisodiyot tarmog'ining barcha sohasida ishlatilmoqda. Shu bilan birga uning inson hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli omillari ortib bormoqda.

Sanoat xavfsizligi fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarni nurlanish kasalligidan kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish, shuningdek, Biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan nurlatish ta'sirida insonlar o'limi va moddiy zararlar miqyosini kamaytirish imkonini beradi.

**II. "SANOAT VA RADIATSIYA XAVFSIZLIGI" FANIDAGI
MASHG'ULOTLARNING MAVZULAR VA SOATLAR BO'YICHA
TAQSIMLANISHI**

2.1. Ma'ruzalar soatlar bo'yicha taqsimlanishi

N ^o	Mavzular	Soat
1 - modul. Sanoat xavfsizligining konuniy asoslari.		
1	1-ma'ruza Sanoat xavfsizligi faniga kirish Sanoat xavfsizligi fanining maksadi, vazifalari va o'rganish obektlari. Sanoat xavfsizligini ta'minlash usullari. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillar, xavf va xavfsizlik masalalari, asosiy terminlar, texnika xavfsizligi bo'yicha beriladigan yo'riqnomalar.	2
2	2-ma'ruza. O'zbekiston Respublikasida Sanoat xavfsizligi konuniy asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Havfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsad va mohiyati. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.	2
3	3-ma'ruza Xavfli sanoat obyektlarini identifikatsiyalash Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini aniqlashda umumiy qoidalar. Xavfli b'ektlarni toifalari va turlariga kiritishning asosiy mezonlari. Identifikatsiyaning asosiy tamoyillari	2
4	4-ma'ruza Xavfli sanoat obyektlarini deklaratsiya qilish Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish va davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolarga taqdim etish tartibi. Xavfsizlik deklaratsiyasiga ega bo'lgan xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish	2
5	5-ma'ruza Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-sonli karori asosida "Xisob-tushuntirish xati"ni tuzish Xisob-tushuntirish xati"ning titul varaq. Mundarijasi.1-bo'lim «Tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar».2-bo'lim «Xavfsizlik tahlili».3-bo'lim «Xulosalar va takliflar».4-bo'lim «Vaziyatlar rejalari». «Foydalanilgan manbalar ro'yxati».	2
6	6-ma'ruza Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimi Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimi haqida tushuncha. Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimining ishtirokchilari. Imtihon tizimining asosiy vazifalari va uning ishtirokchilarining vazifalari	2
7	7-ma'ruza. Portlovchi va zaharli moddalarni yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi Portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida	2

8	8-ma'ruza. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi. Litsenziya talablari va shartlari. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish	2
9	9-ma'ruza. Xavfli sanoat obyektlarini risk (tavakal) taxlili Tavakkal nazariyasi asosiy qoidalar, tavakkal turlari. Tavakkalni aniqlash usullari. Tavakkalning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mintiqiy tushunchasi, tavakkalni boshqarish.	2
10	10-ma'ruza. Xavfli sanoat obyektlarini davlat reyestridan o'tkazish tartibi Xavfli sanoat obyektlarini davlat reyestridan o'tkazish tartibi to'g'risida umumiy tushuncha. Ishlab chiqarish obyektlarini reyestrga olish tartibi. Ishlab chiqarish obyektlarini reyestrda chiqarish tartibi. «Sanoatgexkontexnazorat» Davlat inspeksiya vazifasi va vakolatlari	2
2-modul. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspertizasi		
11	11-ma'ruza. Texnogen xavf yukori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi. Texnogen xavf yukori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nnizom. TXYUZDKni yuritishni tashkil etish. TXYUZDKni yuritish tartibi. Texnogen xavf yukori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish sxemasi.	2
12	12-ma'ruza. O'zbekiston Respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish Konsepsiyasi. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish konsepsiyasining asosiy vazifalari. Mahsulot sifatini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazoratning roli. Sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazoratning roli. utur yetkazmaydigan nazorat tizimini qurish. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor chora-tadbirlari	2
13	13-ma'ruza. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish qoidalarini. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish. Akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlarini faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish. Ekspert tashkilotlarini qayta akkreditatsiya qilish. Akkreditatsiya attestatiga o'zgartirishlar kiritish, qayta rasmiylashtirish va akkreditatsiya attestatining dublikatini berish	2

14	14-ma'ruza. Xavfli ishlab chikarish obyektlarida avariya xalokatini oldini olish va bartaraf etishga tayyorgarlikda sanoat xavfsizligi talablari. Xavfliarning barqarorligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar favqulodda vaziyatda ishlab chiqarish ob'ekti. Favqulodda choralar rejasini (PLAS)	2
15	15-ma'ruza. Xavfli ishlab chikarish obyektlarida ishlab chikarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish koidalari. Atom energiyasidan foydalanishda xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish. Sanoat sohasida davlat nazorati xavfsizlik. Davlat kon-metallurgiya nazorati. Davlat qurilish nazorati. Davlat qurilishi davlat energetika nazorati. Hududda litsenziyalash va ruxsat berish faoliyatini tashkil etish sanoat xavfsizligi HIF	2
16	16-ma'ruza. Xavfli ishlab chikarish obyektlarida avariya yuz bergan takdirda boshqa shaxslarning xayoti, sogligi va (yoki)mol-mulkiga xamda atrof muxitga zarar yetkazganlik uchun fukarolik javobgarligini majburiy sugurta qilish tartibi. Ishlab chiqarish obyektlaridagi xodimlar va mol mulkini majburiy sug'irta qilish tartibi to'g'risida tushuncha. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini ishlatuvchining sug'irta qilish bo'yicha jabgarligi. Sug'irta mablag'ini belgilash va olish tartibi	2
18	17-ma'ruza. Sanoat obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash Sanoat obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash asoslari. Sanoat obyektlarini yong'in va portlash xavfsizligi bo'yicha kategoriyalarga bo'lish. Sanoat obyektlarini maxsulotlar saqlashda yong'in va portlash xavfsizligi bo'yicha kategoriyalarga bo'lish. Sanoat obyektlarini maydonini yong'in va portlash xavfsizligi bo'yicha darajaga bo'lish	2
19	18-ma'ruza. Sanoat obyektlarida elektr xavfsizligini ta'minlash Sanoat obyektlarida elektr xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari. Sanoat obyektlarida yuqori quvvatli elektr manbalari bo'lganda elektr xavfsizligini ta'minlash. Sanoat obyektlarida elektr xavfsizligi bo'yicha kategoriyalarga ajratish	2
20	19-ma'ruza. Sanoat obyektlarini layihalash, qurish va rekonstruksiya qilishda xavfsizlik talablari Sanoat obyektlarini layihalash, qurish va rekonstruksiya qilishda asosiy xavfsizlik talablari. Sanoat obyektlarini layihalash, qurish va rekonstruksiya qilishda maxsulotlarni saqlash bo'yicha asosiy xavfsizlik talablari. Sanoat obyektlarini layihalash, qurish va rekonstruksiya qilishda jixoz va uskunalarini joylashtirishda asosiy xavfsizlik talablari.	2
21	20-ma'ruza. Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya sodir bo'lganda xavfsizlik chora tadbirlar Kimyoviy xavfli obyektlarda kimyoviy nazorat va razvedka olish borish. Xavfli kimyoviy moddalardan aholini himoya qilish va tibbiy yordam ko'rsatish usullari. Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish usullari va vositalari. Xavfli kimyoviy moddalardan ifloslangan zonalarida maxsus tozalash tadbirlarini tashkil etish.	2

22	22-ma'ruza. Xavfli sanoat obyektlarida mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligini xizmatini tashkil etish va boshqarish Mehnat muxofazasini boshqarish, sanoat xavfsizligi xizmatini tashkil etish, fuqaro muxofazasi xizmatini tashkil etish, sanoat xavfsizligi masalasida ma'sul xodimlarning vakolatlari va buchlari	2
	Jami	44

Ma'ruza mashg'ulotlari multimeidiya qurilmalar bilan jixozlangan auditorida akadem guruhlar bilan o'tiladi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari- aqliy hujum, blits-so'rov, tahlil qilish, "ko'rgazmali ma'ruza", "subbat", "bahs-munozara", "tushunchalar tahlili", "tarmoqlar", "kichik guruxlarda ishlash", baliq skeleti, BBB jadvali (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim).

2.2. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mehnat muxofazasig meyoriy xujjatlar va rasmiylashtirish buyicha amaliy ko'nikmalar hosil qtladi.

Amaliy mashg'ulotlari taxminiy ruyxati.

№	Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha mavzulari	Soat
1	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiya qilish tartibini o'rganish	2
2	Ishlab chiqarish obyektlarini deklaratsiya qilish tartibini o'rganish	2
3	Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish tartibini o'rganish	2
4	Portlovchi va zaharli moddalar bog'liq faoliyatini litsenziyalash tartibini o'rganish	2
5	Xavfli sanoat obyektlarini davlat restertidan o'tkazish tartibini o'rganish	2
6	Xavfli ishlab chikarish obyektlari risk taxlili.	2
7	Ishlab chiqarish obyektlaridagi xodimlar va mol mulkini majburiy sug'irta qilish tartibi o'rganish	2
8	Texnogen xavf yukori bulgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi.	2
9	Uzbekiston Respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish.	2
10	Sanoat xavfsizligi soxasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish.	2
11	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning xayoti, sogligi va (yoki)mol-mulkiga xamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'irta qilish tartibi.	2
12	Dozimetrik asboblal turlari va klassifikatsiyasini o'rganish	2
13	Umumjamoa himoya inshootlari turlarini, tuzilishi va ulardagi texnik kurilmalarga kuyiladigan talablarni o'rganish	2
14	Shaxsiy ximoya vositalarini tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish	2
15	Sanoat korxonalarida shamollatish tizimini tashkil etish	2
16	Sanoat korxonalarida zararli changlar va zaxarli moddalarni tahlil qilish	2

17	Xavfli kimyoviy obyektlarda avariya sodir bo'lganda ifloslanish darajasini boshqarish	2
18	Sanoat korxonalarida yong'in xavfsizligini tahlil qilish	2
19	Sanoat korxonalarida elektr xavfsizligini tahlil qilish	2
20	Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishlar turlarini va xususiyatlarini o'rganish	2
21	Odam organizmida nurlanish kasalligi rivojlanishi, shakli va og'irlik darajasi xolatlarini o'rganish	2
22	Ishtab chiqarish korxonalarida ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish	2
Jami		44

2.3. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarda talabalar sanoat xavfsizligi me'yoriy xujjatlar va rasmiylashtirish buyicha amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.
Seminar mashg'ulotlari taxminiy ruyxati.

No	Seminar mavzulari	Soat
1	O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligini sohasidagi qonunchilik	2
2	Sanoat korxonalarida favqulodda vaziyatlarning ta'sirini boshqarish	2
3	Sanoat korxonalarida baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarini tahlil qilish	2
4	Sanoat korxonalarida sodir bo'ladigan xavflarni tahlil qilish va guruhlash	2
5	Sanoat korxonalarida sodir bo'ladigan xavfli va zararli omillarni tahlil qilish	2
6	Sanoat korxonalarida yoritish tizimini tashkil etish	2
7	Sanoat korxonalarida yuklarni yuklash-tushirish va tashish ishlarni tashkil etish	2
8	Sanoat korxonalarida yuqori bosim ostida ishlaydigan idishlarni va kompressorlarning xavfsizligi ta'minlash chora-tadbirlari	2
9	Sanoat korxonalarida texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar berish tartibi	2
10	Radiatsiyaviy avariyalardan keyin radiatsiyaviy xolatni baxolash metodikasini o'rganish	2
Jami		20

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini tajribalar orkali yanada boyitadilar. Shuningdek, texnologik jixoz va vositalar, tarkatma materiallardan foydalanish, mavzular bo'yicha takdimotlar va ko'rgazmali roliklar tayyorlash, normativ-huquqiy xujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

2.3. Mustaqil talim va mustakil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys - stadilar yechish uslub va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Sanoat xavfsizligi fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllarda mustaqil ishini topshirishlari mumkin.

- faning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- prezentatsiyalar tayyorlash;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- maqola, tezislar tayyorlash;
- bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;
- amaliy mazmundagi nstandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Tavsiya etiladigan mustakil ta'lim mavzulari

1. O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligini sohasidagi qonunchiligi.
2. Sanoat xavfsizligini boshqarishda davlat tizimi.
3. Xavfli sanoat obyektlarini ruyxatdan o'tkazish.
4. Korxonalarini sanoat xavfsizligini ta'minlashdagi majburiyatlari.
5. Sanoat xavfsizligini talabalariga rioya qilinishda korxonalardagi nazorat.
6. Sanoat xavfsizligi sohada litsenziyalashtirish.
7. Sanoat xavfli obyektlarda avariya ro'y berishi bo'yicha sabablarini tekshirish.
8. Sanoat xavfsizligi ekspertizasi.
9. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi.

Y. Sug'urtalash turlari. Sug'urtalashni huquqiy ishlashi, korxona faoliyati bilan bog'liqligi.

11. Korxona ekspertlarini tayyorlash va qoidalar.
12. Xavfsizlik talabalarini tegishli sohalarida boshqaruvi.
13. Xavfsiz sharoitlarni tashkil qilish bo'yicha chora - tadbirlar.
14. Ehimolligi mavjud bo'lgan iqtisodiy zararni baholash.
15. Sanoat obyektlarining barqarorligini o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va usullari.

16. Sanoat xalokatlarini bartaraf qilish rejasini tuzib chikish.
17. Sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat xayotda muhim manfaatlari.
18. Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish.
19. Xavfli ishlab chikarish obyektlari loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari.
20. Sanoat korxonalarini indentifikatsiyala

III. FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH

Talabalar bilimini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat – fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha, og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat – semestr davomida modulni tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallanganidan keyin, talabning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va yozma, og'zaki va test shakli bo'lishi mumkin.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida fakultet ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

a) **5 ball- uchun talaba**- to'g'ri va aniq xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yuritish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

b) **4 ball uchun talaba**- mustaqil mushohada yuritish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

v) **3 ball uchun talaba**- mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R = V \times Q / 100$$

bnda: V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); Q – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

IV. ASOSIY VA KO'SHIMCHA O'KUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

4.1. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun. № URK.-57. 28.09.2006. Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Hojalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida" №717-1. 24.12.1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning behatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida № 323 Qarori. 10.07.2004 y.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar xaqida. №271. 10.12.2008.

4.2. Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 y., 16 yanvar, №11.
6. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga ko'ramiz. — T.: "O'zbekiston". 2017. - 488 b.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: Uzbekiston, 2017. - 46 b.
9. Analiz avariy i neschastnix sluchayev v neftegazovoy komplekse Rossii / Pod red. B. YE. Prusenko, V. F. Martinyuka. M.: OOO "Analiz opasnostey", 2015.

4.3. Internet saytlari

10. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
11. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
12. www.mintrud.uz - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
13. www.bilim.uz - OUMTV sayti